

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand viloyati hokimining o‘rinbosari,
Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i
Z. Saidova
2025-yil _____ avgust

Kattaqo‘rg‘on shahar hokimining o‘rinbosari-Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i faoliyatining 2025-yil III va IV choraklar uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga (KRI) erishish bo‘yicha
YO‘L XARITA

T/r	Eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga (KRI) erishish bo‘yicha chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas‘ul ijrochilar
1.	Iqtidorli xotin-qizlarni aniqlash va ularni qo‘llab-quvvatlash.	1. Mahallalarda, umumta‘lim maktablarida, oliy ta‘lim muassasalarida, tashkilot, idoralardan iqtidorli qizlarni aniqlash va ro‘yxatini shakllantirish. 2. Qizlarning iqtidori va qiziqishiga ko‘ra rivojlantiruvchi o‘quvlar, seminar-treninglar, davra suhbatlari tashkil etish. 3. Shakllantirilgan ro‘yxat asosidagi qizlarni “Qizlarjon” klubiga a‘zolikka jalb etish va “Tengdosh-tengdoshga” tamoyili asosida ijtimoiylashmagan qizlarni faolligini oshirishga yo‘naltirish. 4. III chorakda – 47 nafar; IV chorakda – 25 nafar. 5. Belgilangan tartibda rahbariyatga axborot kiritib borish.	2025-yil avgust har chorak har chorak	Kattaqo‘rg‘on shahar Oila va xotin-qizlar bo‘limi, Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi, Yoshlar ishlari agentligi, Mahallalar uyushmasi shahar bo‘limi, tashkilot va idoralar, Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi
2.	Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni manzilli qo‘llab-quvvatlash	1. Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarning manzilli ro‘yxatini shakllantirish. 2. Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni manzilli qo‘llab-quvvatlash. 3. “Ijtimoiy himoyaga muhtoj 1026 nafar xotin-qizlarni manzilli qo‘llab-quvvatlash. Bunda: III chorakda – 881 nafar; IV chorakda – 145 nafar 4. Belgilangan tartibda rahbariyatga axborot kiritib borish.	2025-yil avgust-dekabr har chorak har chorak	Kattaqo‘rg‘on shahar Oila va xotin-qizlar bo‘limi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi shahar bo‘limi, Tijorat banklari, shahar hokimligi

3.	Oila institutini mustahkamlash, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, mahallalarda nizolarni barvaqt aniqlash, nizoli oilalarni sog'lom turmush tarziga qaytarish.	1. Tumanlar va mahallalar kesimida mahallalarga murojaat etgan oilaviy ajrim bilan bog'liq nizoli oilalarning manzilli ro'yxatlarini shakllantirib borish. 2. Oilaviy ajrim bilan nizoli oilalarni tuman va shahardagi Oila va xotin-qizlar maskanlarida yarashtirish choralarini ko'rish. 3. 2025 yilning III-IV-choraklarda 38 ta nizoli oilarni sog'lom turmush tarziga qaytarish. Bunda: III chorakda –25 ta; IV chorakda – 13 ta. 4. Ma'lumotlarni har oy yakuni bilan tahlil qilish va belgilangan tartibda rahbariyatga axborot kiritib borish.	2025-yil avgust-dekabr har chorak yakuni bilan har oy yakuni bilan	Kattaqo'rg'on shahar Oila va xotin-qizlar bo'limi, Adliya bo'limi, Fuqarolik sudi, Ichki ishlar bo'limi, Mahallalar uyushmasi hududiy bo'limi, shahar hokimligi
4.	Mahallalarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlarini takomillashtirish, qayta tashkil etish	1. Xotin-qizlar bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlarini tashkil etish 2. Hududlarda 1 ta markazlar barpo etish bo'yicha tashkiliy choralarni ko'rish. Bunda: IV chorakda – 1 ta. 3. Ma'lumotlarni tahlil qilish va belgilangan tartibda rahbariyatga axborot kiritib borish.	2025-yil avgust-dekabr har chorak yakuni bilan har chorak	Kattaqo'rg'on shahar Oila va xotin-qizlar bo'limi, Kadastr agentligi shahar bo'limi, Mahallalar uyushmasi shahar bo'limi, shahar hokimligi
5.	Davlat tomonidan ehtiyojmand xotin-qizlarga mahsus jarroxlik amaliyotini o'tkazish	1. Jarrohlik amaliyotiga ehtiyojmand xotin-qizlarni "Inson" markazlari, sog'liqni saqlash bo'limlari bilan hamkorlikda o'rnatilgan tartibda jarroohlik amaliyotini amalga oshirishga ko'maklashish. 2. Aniqlangan ro'yxat asosida jarrohlik operatsiyasi o'tkazilgan ehtiyojmand xotin-qizlar haqida ma'lumotlarni umumlashtirish. Bunda 5 nafar Davlat tomonidan ehtiyojmand xotin-qizlarga mahsus jarrohlik amaliyotini o'tkazish: III chorakda – 3 nafar; IV chorakda – 2 nafar. 3. Ma'lumotlarni tahlil qilish va belgilangan tartibda rahbariyatga axborot kiritib borish.	2025-yil avgust-dekabr har chorak yakuni bilan har chorak	Kattaqo'rg'on shahar oila va xotin-qizlar bo'limi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi shahar bo'limi, Shahar Tibbiyot birlashmasi, shahar hokimligi